

KONSTITUSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI



O'zbekiston
Respublikasi
Kostitutsiyasi kuni

DEKABR





- **"Har qanday davlatning yuzi, obro`-e'tibori uning Konstitusiyasi hisoblanadi.**
- **Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir"**

I.Karimov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI


O`zbekiston xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g`oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e`lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas`uliyatini anglagan holda, o`zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum etirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta`minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko`zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta`minlash maqsadida, o`zining muxtor vakillari siymosida O`zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

- Jahon tajribalari shuni ko`rsatadiki, mustaqil demokratik xuquqiy davlatning tashkil topishi va rivojlanishini asosiy sharti davlat va jamiyatning siyosiy qurilish tizimini belgilaydigan, fuqorolarning erkinliklari va xuquqlarni himoya qiladigan, xalqning muayyan tarixiy tajribasi va qabul qilingan xalqaro me'yorlariga javob beradigan Konstitutsiyaning mavjudligidir.
- O`zbekiston Respublikasini ishlab chiqish g`oyasi "Mustaqillik Dekloratsiyasi"ning qabul qilinishi munosabati bilan ilgari surilgan edi. Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasi (1990 yil iyun') Prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo`yicha komissiya tuzildi.

- **Konstitutsiyaviy komissiya deyarli 2,5 yil davomida konstitutsiya loyixasini tayyorlash ustida ishladi. Ajdodlarimizning davlatchilik qurilishi, uni mustahkamlash yo`lidagi g`oya va fikrlari, xalqaro xuquqiy va siyosiy tafakkur, jahondagi yetakchi davlatlarning Konstitutsiyaviylik tajribasi asosida O`zbekiston Konstitutsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Konstitutsiya loyihasi 1992 yil sentabrda matbuotda e'lon qilindi va 3 oy davomida umumxalq muhokamasida bo`ldi. Xalqimiz tomonidan 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Respublika Oliy Kengashining o`n birinchi sessiyasi 1992 yil 8 dekabrda "O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to`g`risida" gi qonunni qabul qildi.**
- **2003 yilda umumxalq referendumini natijalari e'lon qilingandan so`ng O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o`zgartish kiritildi va yangi tahriri nashr etildi. Mazkur xujjatda 2 palatali parlamentning ishlash tartibi, qonunchilik va Senat palatalarining mutloq va birgalikda bajaradigan vazifalari va vakolatlari ko`rsatilgan.**
- **-Davlat suvereniteti;**
- **-Xalq hokimiyatchiligi;**
- **-Fuqaro (inson) erkinliklari va xuquqlarining daxlsiz va ustivorligi;**
- **-Demokratizm;**
- **-Davlat va shaxsning o`zaro mas'ulligi;**
- **-Qonuniylik;**
- **-Konstitutsiyaning ustunligi;**
- **-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi sud hokimiyatiga bo`linishi;**
- **-Mahalliy o`z-o`zini boshqarish;**
- **-Sud (idoralari) tuzilishi va sudlov;**

- Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, To`ra Mirzo, Raim Farhodiy kabi ko`plab shoirlarning Vatanimiz - O`zbekistonni madh etuvchi she'rlaridan foydalaniladi. Kichik yoshdagi kitobxonlarga O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida so`z yuritilganda bolalarning yoshi va bilim darjasiga alohida e'tibor qaratish lozim. 1-4 sinf o`quvchilarini Konstitutsiya bilan tanishtirishda va Konstitutsiya O`zbekistonda yashovchi har bir kishi uchun asosiy qonun ekanligini, har bir fuqaroning huquq va burchlari mazkur qonundagina belgilanishini, bu qonunga barchamiz amal qilishimiz zarurligini tushuntirish lozim.
- Masalan, kichik yoshdagi kitobxonlarga qomusimizning 1-moddasida "O`zbekiston - suveren demokratik Respublika". Davlatning "O`zbekiston Respublika" va "O`zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi" deb yozilganligini yorqinroq tushuntirib berilishi va Respublikaning mustaqil davlat bo`lgani O`zbekistonda yashovchi har bir fuqaro uchun quvonchli voqea ekanligi ta'kidlanadi.

- 
- Yosh avlodni ma'naviy barkamollik tamoyillari negizida tarbiyalashda, ularning qalbida Vatan tuyg`usi o`z el-yurtiga mehr- muhabbat va sadoqat hislarini shakllantirishda Davlat ramzlari mohiyatini ochib berishda Konstitutsiyamizning 1-bo`limi 1-bob, 4-5 modda 2-bo`lim 11-bob, 52-moddalaridan foydalanish lozim. Bu mavzuni yoritishda Gerb, Bayroq rasmlarini namoyish qilish kerak. Gerbdagi xumo qushi, sakkiz qirrali yulduz, paxta, bug`doy boshoqlari, vodiylar, tog`lar, daryolar, zarrin nurini sochib turgan quyosh qanday ma'noni anglatadi. Bular haqida ko`proq tushuntirish kerak.
 - Bolalar va o`smirlar o`rtasida huquqiy bilimni kuchaytirish, ularni konstitutsiyaviy huquq sohasidan xabardor qilish talab etiladi. Huquqiy madaniyatli inson qonunni hurmat qiladi. Qabul qilingan qonunlar kim, nima uchun ekanligini tushungan holda unga itoat etadi. Bu Konstitutsiyamizning 3-bo`lim 5 -bob 18-moddasida o`z aksini topgan. Kitobxon bolalarni iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari ya'ni mulkdor bo`la olish, merosxo`rlik, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bepul umumiy ta'lim olish, davlat tomonidan nazoratda ekanligini, konstitutsiyaning 8-bo`lim, 9-bob, 36, 37, 40, 41 moddalarida keltirilganligini tushuntirish lozim. Bu moddalarni misollar bilan chuqurlashtirish kerak. Konstitutsiyaga bag`ishlangan ma'naviy tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o`tkazishda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim.

- Davra suhbatlari, savol-javob kechalari, bahs-munozara, konferensiya, uchrashuv kechalarini reja asosida muntazam o`tkazib turish kerak. Bu mavzuda Konferensiya o`tkazish anchagina zukkolikni talab qiladi. Uning rejasini har tomonlama puxta o`ylab, Axborot resurs markazi rahbarlari, jamiyatshunoslik va tarix o`qituvchilari hamda faol kitobxonlar bilan kelishilgan holda tuzilgani ma'qul.
- Konferensiya o`tkazish uchun avvalo uning dasturi, mavzusi, o`tkazilish kuni, boshlanish soati, qaysi xonada o`tkazilishi kimlarning taklif etilishi, kim tomondan olib borilishi, tegishli joylarga yuborilishi kelishib olinadi. Konferensiyani o`tkazilish kuni haqida yozilgan bitik (e'lon) bolalarni ko`ziga ko`rinarli joylarga yopishtirib qo`yiladi. Taklifnoma va bukletlar tarqatiladi.
- Konferensiya uchun: "O`zbekiston Mustaqilligi" yoki "hayotimiz qomusi" mavzularidan biri olinishi mumkin. Anjumanga mutaxassislar, mehnat fahriylari, o`qituvchilar taklif qilinadi. Bundan tashqari konferensiyani xozirgi Davlatning iqtisodiy siyosati yoki Davlat tiliga bo`lgan talablar bilan bog`lab olib borish mumkin. Konferensiyani olib boruvchi shaxs bilim doirasi keng, xushfe'l, shirinsuxan, jamoat ishlarida faol qatnashgan, konferensiya olib borish qoidalari va tartibini yaxshi biladigan bo`lishi kerak.

SAVOLLAR

1. "Konstitutsiya" so`zi
qanday ma'noni bildiradi?

❖ Konstitutsiya-nizom, yo`l-
yo`riq degan ma'noni
bildiradi

2. O`zbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- ❖ XII chaqiriq XI sessiyasi
1992 yil 8 dekabr

3. Siyosiy huquqlarimiz Konstitusiyamizning qaysi moddalarida berilgan?

- ❖ 32-33-35 moddalarida
berilgan

4. Ijtimoiy va iqtisodiy
huquqlarimiz qaysi
moddalarda berilgan?

❖ 36-42 moddalar

5. Shaxsiy huquq va erkinlar
qaysi moddalarda o'z
aksini topgan?

❖ 24-31 moddalar

6. Qoraqalpog'iston
Respublikasi haqidagi
moddalar nechinchi bobga
kiritilgan?

❖ 17 bob


7. Oxirgi marta
Konstitutsiyaning qaysi
moddalariga o'zgartirishlar
va qo'shimchalar kiritilgan?

❖ 32,78,93,98,103,117
moddalariga o'zgartirish va
qo'shimchalar kiritilgan.

8. 5-moddani ayting.

- ❖ 5-modda. O`zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o`z davlat ramzlari — bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega.

- ❖ 5-modda. O`zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o`z davlat ramzlari — bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega.



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
MADHIYASI

MUTAL (MUTAVAKKIL) BURHONOV MUSIQASI,
ABDULLA ORIPOV SO`ZI

SERQUYOSH, HUR O`LKAM, ELGA BAXT, NAJOT,
SEN O`ZING DO`STLARGA YO`LDOSH, MEHRIBON!
YASHNAGAY TO ABAD ILMU FAN , IJOD,
SHUHRATING PORLASIN TOKI BOR JAHON!

NAQORAT

OLTIN BU VODIYLAR-JON O`ZBEKISTON,
AJDODLAR MARDONA RUHI SENG A YORI
ULUG` XALQ QUDRATI JO`SH URGAN ZAMON,
OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYORI!

BAG`RI KENG O`ZBEKNING O`CHMAS IYMONI,
ERKIN YOSH AVLODLAR SENG A ZO`R QANOT!
ISTIQLOL MASH`ALI, TINCHLIK POSBONI,
HAQSEVAR, ONA-YURT, MANGU BO`L OBOD!

NAQORAT

OLTIN BU VODIYLAR-JON O`ZBEKISTON,
AJDODLAR MARDONA RUHI SENG A YORI
ULUG` XALQ QUDRATI JO`SH URGAN ZAMON,
OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYORI!

The image displays the national anthem of Uzbekistan. At the top is the national emblem of Uzbekistan, which is a circular emblem featuring a sun with rays, a white eagle with spread wings, and a green field with a white wave. The emblem is surrounded by a wreath of wheat and cotton. Above the emblem is a blue star with a white crescent moon. Below the emblem is a banner with the word "O`ZBEKISTON". The text of the anthem is written in blue and black. The background is a light blue and white gradient.

9. 6-moddani aytib bering.

- ❖ 6-modda. O`zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

10. 47-moddani aytib
bering.

❖ 47-modda. Barcha
fuqarolar Konstitusiyada
belgilab qo`yilgan
burchlarini bajaradilar.



**ZAKOVAT
SAVOLLARI**

Aristotel oʻrta asr sharqida «Birinch muallim» deb atalar edi. Farobiy Aristotelning asarlarini yaxshi bilishi, u kabi entsiklopedik bilimga ega boʻlganligi sababli «Ikkinchi muallim», «Sharq Arastusi» degan buyuk unvonga sazovor boʻlgan. Bu mashxur olim esa, Aristotel va Farobiyning ilgʻor gʻoyalarini tabiatshunoslik ilmining yangi yutuqlari asosida yanada rivojlantirdi va «Uchinchi muallim» degan buyuk unvonga ega boʻldi. U kim?

❖ **Javob: Abu Ali ibn Sino.**

Kometa, teleskop,
apistogramma, metinnis,
puntiuskonxonius,
mezonkauta. Bu
nomlarning umumiyliigi
nimada?

❖ Javob: Bularning barchasi akvarium baliqlarining nomi.

Ingliz olimi Uilyam Garvey
shunday deb yozgan edi:
«Har qanday jonli mavjudot
undan kelib chiqadi». U
nima bo'lishi mumkin?

❖ **Javob: Tuxum.**

Ularni Tojikistonda jo'gilar,
Armanistonda bosha,
Angliyada misrlik, Eronda
qoracha, Frantsiyada fir'avn
qabilasi, Finlyandiyada qora
deb ataydilar. Ho'sh ular bizda
qanday ataladi?

❖ **Javob: Lo'lilar.**

ADABIYOTLAR

- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O`zbekiston" 1994.-86b.
- Azizxo`jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat.-T.: 1997.-112b.
- Jalolov A. O`zbekiston: Mustaqillik, ma'noviyat, mafkura .T.: -1994.-95b.
- Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. T.:1996.-226b.
- Jalolov A. Istiqbol ufqlari.T.:1998.-253b.
- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.-T.:1998.
- Inson manfaatlari: qonun xujjatlarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari mavzuidagi ilmiy-amaliy anjuman xujjatlari.-T.,1998.-95b.
- Inson huquqlari sohasida milliy faoliyat dasturi. 1-bosqich (1997-1998y).
- Inson huquqlari kursini o`rganish bo`yicha uslubiy tavsiyanoma.-Termiz,1998.-43b.
- Iqtisodiy islohotlar.-T.,1998.-181b.
- Odilqoriev X.T. O`zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni.-T.:1995.-212b.
- Raximov F. Istiqloldan yaralib, mustaqillikning mustahkamlagan Asosiy qonun.-T.:1994y.
- Saidov A. Mustaqillik qomusi.-T.:1993-30-b.
- Saidov A. G`iyosiy Konstitutsiyashunoslik.-T.:1993-76-b.
- Saidov A, Sultonov S. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Inson huquqlari.-T.:1998.-178-b.
- Saidov A., Jurjoniy A. Sharq va inson huquqlari.-T.:1998.-214-b.
- Sattorov A. qonun va inson huquqlari.-T.:1999.-35-b.
- Tojixonov U. Huquqiy mafkura va qonunga itoatkorlik.-T.:1995.-52-b.
- Urazaev Sh. Mustaqil O`zbekistonning Konstitutsiyasi.-T.:1995.112-b.